

**O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki
faoliyatida yuzaga kelgan muhim faktlar**

05.07.2019 y.

EMITENTNING NOMI							
1.	To'liq:	O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki					
	Qisqartirilgan:	Xalq banki					
	Birja tikerining nomi:	Mavjud emas					
ALOQA MA'LUMOTLARI							
2.	Joylashgan yeri:	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Qatortol ko'chasi, 46.					
	Pochta manzili:	100096, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Qatortol ko'chasi, 46.					
	Elektron pochta manzili:	info@xb.uz					
	Rasmiy veb-sayti:	www.xb.uz					
MUHIM FAKT TO'G'RSIDA AXBOROT							
Muhim faktning raqami:		06					
Muhim faktning nomi:		Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar					
Umumiy yig'ilish turi:		Yillik					
Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:		28.06.2019					
Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:		05.07.2019					
Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:		Toshkent shahri, Qatortol ko'chasi, 46-uy.					
Umumiy yig'ilish kvorumi:		100,0%					
T/r	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1	Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisoboti hamda rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
2	Bank Taftish komissiyasining yil yakunlari bo'yicha hisobotini eshitish	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
3	Bankning 2018 yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash va tashqi auditorning yil yakunlari bo'yicha hisobotini eshitish	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
4	Bank foydasini taqsimlash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
5	Bankning 2019 yil uchun Biznes-rejasini tasdiqlash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
6	Bank Kengashi a'zolarini saylash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
7	Bankning Taftish komissiyasi a'zolarini saylash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
8	Bank Boshqaruvi Raisini tasdiqlash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
9	Bankda 2019 yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish	100%	1 869 073 136	0	0	0	0

10	Bankning e'lon qilingan aksiyalarining eng ko'p miqdorini belgilash va ustav kapitalini ko'paytirish	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
11	Bank Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
12	Bankning "Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi, "Bank Kengashi to'g'risida"gi va "Bank Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizomlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
13	Bank korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
14	Bankning Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash	100%	1 869 073 136	0	0	0	0
Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:							
1	1. Bankning 2018 yildagi ish yakunlari to'g'risida Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisoboti tasdiqlansin (1 va 2 ilovalar). 2. Bank Kengashi va Boshqaruvining faoliyati qoniqarli deb topilsin.						
2	Bank Taftish komissiyasining xulosasi va hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin (hisobot ilova qilinadi).						
3	1. Bankning 2018 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti tasdiqlansin (3-ilova). 2. "GRANT THORNTON" MChJning 2018 yil yakunlari bo'yicha hisoboti (ilova qilinadi) tasdiqlansin.						
4	1. Sof foydani taqsimlash bo'yicha bank Kengashining taklifiga rozilik berilsin. Bankning 2018 yil yakunlari bo'yicha olingan sof foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin: - O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasiga asosan umumiy zaxira fondiga 1 392,0 mln. so'm (sof foydaning 5 % miqdorida) ajratish; - standart aktivlarga yaratiladigan zaxiraga 13 920,0 mln. so'm (sof foydaning 50 % miqdorida); - Kengash a'zolarini mukofotlash uchun 70,7 mln. so'm; - Taftish komissiyasi a'zolarini mukofotlash uchun 6,1 mln. so'm; - aksiyadorlarga to'lab beriladigan dividendlar uchun 9 187,2 mln. so'm (sof foydaning 33 % miqdorida), bir dona aksiyaga 0,49 % miqdorida; - bank xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun 3 264,0 mln. so'm yo'naltirilsin. 2. Dividendlarni to'lab berishning boshlanish sanasi 2019 yil 1 iyul, dividendlarni to'lab berishning oxirgi sanasi 2019 yil 26 avgust etib belgilansin va to'lovlar pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilsin. 3. Bankning sof foydasi hisobidan bank xodimlariga hisoblangan moddiy rag'batlantirish mablag'larini to'lab berish maqsadida ichki me'yoriy hujjat ishlab chiqilsin va belgilangan tartibda tasdiqlansin. Keyinchalik bankning sof foydasi hisobidan bank xodimlariga hisoblangan to'lovlarni ushbu ishlab chiqiladigan tartib asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.						
5	1. Bankning 2019 yil uchun Biznes-rejasi tasdiqlansin (4-ilova). 2. Bank Boshqaruvi zimmasiga Biznes-rejada belgilangan ko'rsatkichlarni ta'minlash vazifasi yuklatilsin.						
6	1. Yuqorida keltirib o'tilgan qarorlar talabini hamda Bank aksiyadori hisoblangan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi vakili Sh.M. Abduazimovning taklifini inobatga olib, bank Kengashi a'zolarini saylash masalasi bank Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga qoldirilsin. 2. Bank Kengashi va Boshqaruvi zimmasiga Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini joriy yilning 31 avgustiga qadar chaqirish vazifasi yuklatilsin.						

3.

7	<p>Bank Taftish komissiyasi a'zolari quyidagi tarkibda saylansin:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Xabibullaev Sardor Alisherovich – O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bo'lim boshlig'i; - Bobobekov Zoxid Anorboevich – O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi boshqarma boshlig'i; - Sayfullaev Abdulaziz Sa'dulla o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi mutaxassisi. 		
8	<p>1. Murodilla Yoqubovich Eshmatov O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruv Raisi etib tasdiqlansin.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4112-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosarining 2019 yil 19 iyuldagi 02/1-160-sonli topshirig'iga asosan, kelgusida Boshqaruv Raisi va uning o'rinbosarlarini tanlov asosida tayinlash uchun belgilangan tartibda Reglament ishlab chiqish va shu Reglament asosida tanlov o'tkazgan holda nomzodlarni saylash tizimi yo'lga qo'yilsin.</p>		
9	<p>Bankda 2019 yil yakunlari bo'yicha tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun "GRANT THORNTON" MChJ tanlanisin, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori 850,0 mln. so'm (QQS bilan birgalikda) etib belgilansin hamda belgilangan tartibda ushbu tashkilot bilan shartnoma tuzish bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatilsin.</p>		
10	<p>1. Bankning Ustav kapitali miqdori 1 869 073 136 000 (bir trillion sakkiz yuz oltmish to'qqiz milliard yetmish uch million bir yuz o'ttiz olti ming) so'm miqdorida, nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 1 869 073 136 (bir milliard sakkiz yuz oltmish to'qqiz million yetmish uch ming bir yuz o'ttiz olti) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat etib belgilansin.</p> <p>2. Ustav kapitalini oshirish maqsadida, bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan (qo'shimcha) aksiyalar summasi 3 130 926 864 000 (uch trillion bir yuz o'ttiz milliard to'qqiz yuz yigirma olti million sakkiz yuz oltmish to'rt ming) so'm bo'lgan, nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'mlik 3 130 926 864 (uch milliard bir yuz o'ttiz million to'qqiz yuz yigirma olti ming sakkiz yuz oltmish to'rt) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat etib belgilansin.</p> <p>3. Bank Ustaviga bank ustav kapitalining hamda Ustav kapitalini oshirish maqsadida, bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan (qo'shimcha) aksiyalar summasi va miqdorining oshirilishi bo'yicha tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.</p>		
11	<p>1. Bank Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar tasdiqlansin (5-ilova).</p> <p>2. Bank Boshqaruvi zimmasiga belgilangan tartibda ushbu Bank Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatdan o'tkazilish vazifasi yuklatilsin.</p>		
12	<p>Bankning "Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi, "Bank Kengashi to'g'risida"gi va "Bank Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizomlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar (6, 7 va 8 – ilovalarga muvofiq) tasdiqlansin.</p>		
13	<p>1. Bankning 2018 yil yakunlari bo'yicha Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.</p> <p>2. Bank Boshqaruvi zimmasiga 2019 yilda Korporativ boshqaruv tizimini baxolash ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash maqsadida bankda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish jarayonlarini davom ettirish vazifasi yuklatilsin.</p>		
14	<p>Bank Boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar, shuningdek ularning eng yuqori miqdori (9-ilovaga muvofiq) tasdiqlansin.</p>		
<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 60%; padding: 5px;">Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni</td> <td style="width: 40%; padding: 5px;">Ilovaga muvofiq taqdim etiladi</td> </tr> </table>		Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni	Ilovaga muvofiq taqdim etiladi
Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni	Ilovaga muvofiq taqdim etiladi		